Y.K. MEYENDORF VA P.I. DEMEZON QAYDLARI BUXORO–ROSSIYA SAVDO MUNOSABATLARI MANBASI SIFATIDA

Panjiyeva Dilnoza Bahrom qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti

2-bosqich magistranti, Toshkent

ORCID: https://orcid.org/0009-0001-4584-2688

Science ID: MQD-1126-0035

dilnozabahromqizipanjiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Tezisda 1820–1821-yillarda Buxoroda bo‘lgan Ye. K. Meyendorf va 1833–1834-yillarda Buxoroga borgan P. I. Demezon qaydlari Buxoro–Rossiya savdo munosabatlari manbasi sifatida qiyosiy tahlil qilingan. Ikki muallif bergan ma’lumotlar Rossiyaga chiqarilgan savdo mollari, bozorlardagi rus mahsulotlari, pul qiymati va karvon xavfsizligi bo‘yicha solishtirildi. Meyendorfda savdoning tarkibi va yo‘nalishlari, Demezonda savdogarlarning qarzlari va narxlarning tushishi ko‘proq yozilgan. Ikkalasini yonma-yon o‘qisak, o‘n uch yil ichida savdo muhiti qanday o‘zgargani ko‘rinadi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Ye. K. Meyendorf, P. I. Demezon, karvon savdosi, manbashunoslik.

KIRISH

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro bilan Rossiya o‘rtasidagi savdo haqidagi ma’lumotlarning muhim qismi Orenburgdan Buxoroga borgan rus elchilari va amaldorlarining yozuvlarida saqlangan. Bu yozuvlarning mualliflari Buxoroni o‘z ko‘zi

bilan ko‘rgan, bozorlarni aylangan, savdogarlar va amaldorlar bilan suhbatlashgan. Bojxona daftariga tushmaydigan gaplar ham shu yozuvlarda bor: qaysi mol tez sotilgan, qaysi biri bozorda turib qolgan, savdogarlar nimadan noligan.

Bu tezisda shunday yozuvlarning ikkitasi olindi. Biri – A. F. Negri elchiligi tarkibida Buxoroga kelgan Ye. K. Meyendorfning “Orenburgdan Buxoroga sayohat” asari [1]. Boshqasi – Orenburg chegara komissiyasi tarjimoni P. I. Demezonning 1833–1834-yillardagi safari natijasida yozilgan ikki hisoboti [2]. Ular o‘rtasida o‘n uch yillik farq bor. Meyendorf kuzatuvlari Amir Haydar hukmronligining (1800–1826) oxirlariga, Demezonniki esa Amir Nasrulloning (1827–1860) dastlabki yillariga to‘g‘ri keladi.

Maqsad – bu ikki manba Buxoro–Rossiya savdosi haqida nimani aniq aytadi va nimani aytolmaydi, shuni ajratib olish, qaysi savolda qaysi biriga suyanish mumkinligini aniqlash.

TADQIQOT USULI

Tadqiqotda manbashunoslik tahlili va qiyosiy-tarixiy usul qo‘llanildi. Avval har bir manba qanday sharoitda yozilgani ko‘rib chiqildi: muallif kim edi, Buxoroga nima uchun bordi, hisobotni kimga yozdi. Keyin ikki muallif bir xil savollarga bergan javoblar yonma-yon qo‘yildi: Rossiyaga chiqarilgan savdo mollari, Buxoro bozoridagi rus mahsulotlari, pul birliklarining qiymati, karvon yo‘llarining xavfsizligi. Meyendorf asari 1975-yilgi rus tilidagi nashri [1], Demezon hisobotlari 1983-yilgi nashri [2] asosida o‘rganildi. Negri elchiligi haqidagi ma’lumotlar N. A. Xalfinning arxiv hujjatlariga tayangan tadqiqotidan olindi [3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ikki muallif Buxoroga butunlay boshqacha yo‘l bilan borgan. Negri elchiligi 1820-yil oktabrida Orenburgdan yo‘lga chiqqan. Uning yuk karvoni 30 ta arava va 473 ta yuklangan tuyadan iborat bo‘lib, qo‘riqlash uchun 200 kazak, 100 o‘qchi va ikki otliq to‘p ajratilgan. Elchilik 20-dekabrda Buxoroga kirgan va bu yerda uch oy bo‘lgan [3]. Yo‘riqnomaga ko‘ra,

Negrining asosiy vazifasi savdoni kengaytirish edi: u Rossiya Buxoro bilan savdo aloqalarini “nafaqat mustahkamlash, balki kengaytirish”ni istashiga amirni ishontirishi kerak edi [3]. Elchilik tarkibidagi harbiylarga, jumladan, gvardiya bosh shtabi kapitani Meyendorfga Troitskdan Sirdaryogacha bo‘lgan dashtni o‘rganish va Troitsk, Orsk hamda Sirdaryo oralig‘ida qal’a qurishga qulay joylarni aniqlash topshirilgan [3].

Muzokaralarda amir va uning amaldorlari Buxorodan chiqadigan karvonlarni Sirdaryogacha o‘z qo‘shinlari bilan qo‘riqlashga, undan narida esa rus qo‘riqchilari kuzatib borishiga, shuningdek, Buxoroga rus konsuli kelishiga rozilik bergan. Biroq bu kelishuvlar hech qanday shartnoma bilan mustahkamlanmagan [3].

Demezon esa rasmiy elchiliksiz, savdo karvoni bilan borgan. U 1833-yil 30-oktabrda Orenburgdan chiqib, Orsk qal’asida savdo karvoniga qo‘shilgan va 45 kunlik yo‘ldan so‘ng Buxoroga yetgan. Orenburg harbiy gubernatori V. A. Perovskiyning maktubi va sovg‘alari amirga emas, qo‘shbegiga yuborilgan edi [2]. Demezon Buxoroda to‘rt oy yashagan, 1834-yil 26-iyunda Orenburgga qaytgan va o‘sha yilning iyul hamda oktabr oylarida ikki hisobot yozgan [2]. Rasmiy elchilik a’zosi bo‘lgan Meyendorf ko‘proq umumiy tavsif beradi. Arab va fors tillaridan dars bergan, qo‘shbegi bilan o‘zbek tilida so‘zlashgan Demezon esa bozordagi narxlar va savdogarlarning gaplarini batafsil yozib olgan [2].

Meyendorf Buxoroning savdo mamlakati bo‘lishini geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va qo‘shni davlatlarning ishlab chiqarishi bilan bog‘laydi va shu sabablar tufayli “Buxoro asosan savdo mamlakatiga aylangan”, deb yozadi [1]. U Orenburg bojxonasida 1819-yilda qayd etilgan, buxoroliklar Rossiyaga olib kelgan savdo mollari ro‘yxatini keltiradi. Unda, xususan, 16 813 pud paxta, 18 928 pud paxta ipi, 20 410 bo‘lak oq bo‘z, 12 000 dona firuza, 64 825 dona qorako‘l terisi, 77 ta kashmir shohi ro‘moli bor [1]. Kashmir ro‘mollari kabi ayrim mollar Buxoro orqali o‘tgan, xolos. Meyendorfning yozishicha, buxoroliklar molning oz qismini bojxonaning o‘zida mahalliy vositachilarga sotib, qolganini Nijniy Novgorodga olib borgan [1]. Orenburg bojxonasidagi raqamlar savdoning faqat boshlanish nuqtasini qayd etgan.

Rus mahsulotlari Buxoroda to‘xtab qolmagan. Meyendorfning yozishicha, Qashqar bilan savdo Buxoro uchun Rossiyadan keyingi ikkinchi o‘rinda turgan. Buxorolik savdogarlar Buxoroda sotilmay qolgan rus mollarini – movut, marjon, mayda marvarid, zarbof, baxmal, oltin va kumush ip, shakar, katta oynalar, mis, omoch temirlari, igna va shisha buyumlarni Qashqarga olib borgan, bu karvonlar 700–800 tuyadan iborat bo‘lgan [1]. Buxoro bu mollar uchun oxirgi bozor emas, sharqqa ketadigan yo‘lning bir bekati bo‘lgan. Shahar bozorlarida esa rus parchalari va bosma matolari hind, eron va ingliz mahsulotlari bilan yonma-yon sotilgan [1].

Demezon ko‘proq savdogarlarning tashvishlari haqida yozadi. Uning ma’lumotiga ko‘ra, Rossiya bilan savdo qiluvchi buxorolik savdogarlar ko‘p yillar davomida bir xil mollarni olib borgan, rus sanoatining rivojlanishi natijasida esa bu mollarning narxi tez tushib borgan. Rus mahsulotlaridan oshlangan teri, temir va mis kabi zarur buyumlar yaxshi sotilgan, qolganlari esa savdogarga kam foyda keltirgan. Qarzga botgan o‘zbek va tojik savdogarlari hindistonlik sudxo‘rlardan katta foiz evaziga qarz olishga majbur bo‘lgan [2].

Rossiya xaridori nimani xohlaganini ham Demezondan bilib olamiz. Buxoroning yupqa, nozik matosi Rossiyada pishiq emas deb hisoblangani uchun sotilmagan, shu sababli Rossiya bilan savdo qiladigan savdogarlar o‘z ustaxonalaridan ataylab dag‘alroq, lekin pishiqroq mato buyurtma qilgan. Qorako‘l terilarining eng sifatsizi Rossiyaga yuborilgan: uning bir dastasi 1,5 tillaga sotilgan bo‘lsa, Eronga ketadigan teri 5–6 tilla, Xitoyga yuboriladigan teri 10–12 tilla turgan [2]. Meyendorf ro‘yxatidagi 64 825 dona qorako‘l katta raqam bo‘lib ko‘rinadi. Biroq 1830-yillarda Rossiyaga uning eng arzon navi ketganini hisobga olsak, qiymat jihatidan bu savdo soniga qaraganda ancha kichik bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Karvon yo‘li xavfsizligi o‘n uch yil o‘tib ham joyidan siljimagan. 1820-yilda amir karvonlarni Sirdaryogacha qo‘riqlashga va’da bergan edi. Qo‘shbegi Demezonga Buxoro savdosiga Qo‘qon, Xiva va qozoq qabilalari to‘sqinlik qilayotganidan shikoyat qilib, Sirdaryoning ikki sohilida ikki qal’a qurish va karvonlarni chegara chizig‘igacha Buxoro

qo‘shini, undan narida rus qo‘shini kuzatib borishi haqidagi rejani bayon qilgan [2]. 1820-yilda Rossiya tomoni o‘ylagan qal’alar g‘oyasini endi Buxoro ham qo‘llab-quvvatlagan.

Hind savdosi haqidagi qaydlar ham oxir-oqibat Rossiyaga borib taqaladi. Demezon yozishicha, Buxoroning Hindiston bilan savdosi zarar keltirgan, nil bo‘yog‘i narxi bir pud uchun 12 tilladan 2 tilla 4–5 tangagacha tushib ketgan, bu chayqovchilikda o‘zbek amaldorlari xonavayron bo‘lgan. Afg‘on savdogarlari nilni to‘g‘ridan to‘g‘ri Rossiyaga olib borishni xohlagan, biroq Afg‘oniston bilan Rossiya o‘rtasida bevosita savdo yo‘lga qo‘yilishidan qo‘rqqan buxoroliklar ularni bu fikrdan qaytargan [2]. Buxoro savdogarlari vositachilik o‘rnini qo‘ldan bermaslikka tirishgan.

Pul hisobida esa ehtiyot bo‘lish kerak. Meyendorf bir tillani 16 rubl, ya’ni 21 tanga deb hisoblaydi [1]. Demezon esa tillani taxminan 15 rubl 12 tiyin deb ko‘rsatib, bu tangalarning faqat rasmiy belgilangan qiymati ekanini alohida izohlaydi [2]. Narxlarni rublga o‘girganda har bir raqam yonida uning manbasi va yili turishi kerak.

XULOSA

Meyendorf va Demezon bir-birining o‘rnini bosa olmaydi. Meyendorfdan savdoning tarkibini, 1819-yilgi Orenburg bojxonasi raqamlarini, Buxoro bozorlarini va rus mahsulotlarining Qashqarga qayta sotilishini bilib olamiz. Demezondan esa savdogarlarning qarzlari, mol navlari, narxlarning tushishi va karvon yo‘lini qo‘riqlash rejasi haqida o‘qiymiz. Meyendorf raqamlari bitta yil va bitta bojxonaga tegishli, Demezon asosan narxlar va alohida holatlarni yozadi. Shuning uchun ikkalasini ham boshqa bojxona hujjatlari bilan tekshirib ishlatish kerak.

Kelgusida Meyendorf asarining 1826-yilgi Parij nashrini rus tarjimasi bilan solishtirib, savdoga oid qismlarini o‘zbek tiliga o‘girish foydali bo‘lardi. Demezon keltirgan narxlarni Orenburg bojxonasi ma’lumotlari bilan taqqoslasak, 1830-yillardagi savdo ahvoli aniqroq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мейендорф, Е. К. (1975). Путешествие из Оренбурга в Бухару (Е. К. Бетгер, Пер.; Н. А. Халфин, Предисл.). Наука.

2. Халфин, Н. А. (Отв. ред.). (1983). Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П. И. Демезона и И. В. Виткевича). Наука, Главная редакция восточной литературы.

3. Халфин, Н. А. (1974). Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX века). Наука.